

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova**

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

**I.Tuychiyeva, Z.Axunova**

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

**D.R.Yuldasheva**

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

**A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova**

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati .....20

**I.I.Soliyev**

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari .....26

**Sh.D.Xonbabayev**

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari .....31

**M.S.Xoshimov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

**L.Z.Xolmurodov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

**A.Sh.Bazarbayeva**

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

**N.Sh.Abdiyeva**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi .....54

**F.A.Boltayeva**

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

**M.E.Maziyayeva**

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish .....63

**D.D.Boymirzayeva**

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari .....67

**M.O.Ismailova**

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur .....71

**G.O.Shaxbazova**

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni .....75

**M.F.Bekchonova**

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları .....79

**X.A.Ibragimov**

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari .....83

**A.T.Nazarov**

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish .....88

**D.M.Xusanov**

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati .....92

**Y.Y.Turakulov**

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

**Sh.G'.Xasanov**

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



**FANLARARO HAMKORLIKDA BIOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINING BIOLOGIK  
XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY  
JIHATLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ О БИОЛОГИЧЕСКОЙ  
БЕЗОПАСНОСТИ СТУДЕНТОВ-БИОЛОГОВ В МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОМ  
СОТРУДНИЧЕСТВЕ**

**THEORETICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE OF BIOLOGICAL  
SAFETY OF BIOLOGY STUDENTS IN INTERDISCIPLINARY COOPERATION**

Bekchonova Marhabo Foyzullayevna   
Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya*

*Maqolada fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlanishning nazariy-metodologik asoslari, biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlanishning fanlararo hamkorlikdagi texnologiyalari o'rganilgan. Shuningdek, fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlanishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.*

*Аннотация*

*В статье изучены теоретико-методологические основы развития знаний о биологической безопасности студентов-биологов в междисциплинарном сотрудничестве, технологии междисциплинарного сотрудничества развития знаний студентов-биологов о биологической безопасности. Также анализируются теоретические аспекты развития знаний о биологической безопасности студентов-биологов в междисциплинарном сотрудничестве.*

*Abstract*

*The article examines the theoretical and methodological foundations for the development of knowledge about biological safety of biology students in interdisciplinary cooperation, technologies of interdisciplinary cooperation for the development of knowledge of biology students about biological safety. The theoretical aspects of knowledge development are also analyzed*

**Kalit so'zlar:** biologiya, biologik xavfsizlik, fanlararo hamkorlik, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

**Ключевые слова:** биология, биологическая безопасность, междисциплинарное сотрудничество, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспериментальная оценка, педагогический эксперимент.

**Key words:** biology, biological safety, interdisciplinary cooperation, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrda PQ-4899-son "Biotexnologiyalarni rivojlanish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan, 2020-2024-yillarda biotexnologiyalarni rivojlanish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Yuqorida qarorda "xavfli biologik omillar ta'siridan aholini himoya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xavf-xatarlarning oldini olish, biologik xavflarni monitoring qilish tizimini yaratish va rivojlanishiga qaratilgan tavsiyalar va takliflarni tayyorlash, ekspert baholash hamda ko'rib chiqish" vazifasi qat'iy belgilab berildi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Respublikamiz va xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan bo'lajak biolog-mutaxassislarning biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlanishiga zamonaviy texnologiyalar asosida tashkillashtirishga oid bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Biologiya o'qituvchilarini

tayyorlashning metodologik aspektlari Z.I.Tyumasova, o'quv jarayonini rejalashtirish V.I.Sivoglazov, A.N.Myagkovalar, differentsiyal yondashuv ko'nikmalarini shaklantirish L.P.Lisovskaya, biologiya va ekologiyaning o'zaro aloqalari o'zbek olimlari A.S.Medjidova, N.G.Nishanbaeva, N.X.Xakimov, F.T.Rabbimovalar tomonidan o'rganilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xavfsizlik, eng muhimi biologik xavfsizlikning dolzarb xalqaro muammo ekanligini jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tan olinganidan buyon ancha muddat o'tdi. 1983 yilda JSST tomonidan Laboratoriya sharoitida biologik xavfsizlik bo'yicha dastlabki amaliy qo'llanmalar chop etila boshlangan edi.

Dunyoda bo'layotgan so'nggi voqealar shuni ko'rsatmoqdaki, mikrobiologik vositalar va toksinlarni suiiste'mol qilish va chiqarib yuborish natijasida yuzaga keladigan yangi xavflar insonlar salomatligiga tahdid solmoqda.

Biologik xavfsizlik - an'anaviy fan sohalarining asoslardan, ya'ni molekulyar biologiya, biotexnologiya, mikrobiologiya, virusologiya, genetika va bioinformatikaning sohadagi yangi yutuqlaridan foydalangan holda rivojlanayotgan yosh ilmiy va amaliy fan hisoblanadi. Joriy yil 2020 yil 26 iyunda «O'zbekiston Respublikasining Bo'g'uvchi, zaharli yoki boshqa shu kabi gazlar va bakteriologik vositalarning urushda qo'llanilishini taqiqlash to'g'risidagi Protokolga (Jeneva, 1925 yil 17 iyun) qo'shilishi haqida»gi Qonuni qabul qilindi. Bu yo'nalishda biologik (toksik) quroldan foydalanishga qo'yilgan taqiqlar xalqaro Konvensiya doirasida qabul qilingan majburiyatlar asosida tartibga solinadi. SHu nuqtai nazardan, mamlakatimizda aholi sog'ligini asrab-avaylash va atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish barobarida quyidagi holatlarning oldini olish muhim hisoblanadi:

- mikroorganizmlar tomonidan o'ziga xos to'siqlarni yengib o'tish orqali ilgari noma'lum bo'lgan patogenlar keltirib chiqaradigan yangi infektsiyalar xavfining oshishi;

- O'zbekiston hududiga kam uchraydigan yoki ilgari topilmagan infektsiyalarini olib kirilishi, xavfli va o'ta xavfli infektsiyalar, shu jumladan tabiiy-tarqaluvchi, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan va qaytadigan infektsiyalar, shuningdek ularning aholi, hayvonlar va o'simliklar orasida tarqalishi;

- har qanday tabiatda immunitet tanqisligi holatlarining shaxslarda namoyon bo'lishi bilan shartli patogen mikroorganizmlarning o'sishi va infektsiya bilan kasallanish chastotasining ko'payishi;

- xavfli texnogen faoliyatda ikki tomonlama foydalanishdagi biotexnologiyalar, shu jumladan genetik-muhandislik texnologiyalaridan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq xavfning oshishi.

Mikrobiologik oziq-ovqat xavfsizligi ekologiya va tibbiyotning XXI asrdagi eng katta muammosi bo'lib qolmoqda. Oziq-ovqat orqali yuqadigan infektsiyalar hamma joyda ko'paymoqda va hatto rivojlangan mamlakatlarda ham bunday infektsiyalarning qurbanlari juda ko'pligi haqida xabarlar berilmoqda. Ushbu kasalliklarning oqibatida ko'rilgan iqtisodiy zararlar yuz millionlab dollarni tashkil qilmoqda. Ushbu jarayonlar 20-asrning oxirida «oziq-ovqat» infektsiyasining epidemiologik jarayonining har uch yo'nalishida yuz bergen chuqur o'zgarishlar bilan bog'liq. SHunday qilib, atrof-muhitga antropogen ta'sir, tibbiyotda va qishloq xo'jaligida antibiotiklardan foydalanish mikroblarning rivojlanishini tezlashtirdi va o'zgaruvchan xususiyatlarga ega, antibiotiklarga chidamli, infektsiyaning qo'shimcha omillari bo'lgan oziq-ovqat xom ashyosi va bakteriyalarning oziq-ovqat mahsulotlarida an'anaviy ifloslantiruvchi moddalar paydo bo'lishiga olib keldi. Uzoq muddatli muzlatib saqlash, plyonkalarga qadoqlash, sovutilgan xom ashyoni, shu jumladan ishlab chiqaruvchidan uzoq bo'lgan mamlakatlardan minimal ishlov berish texnologiyalari kam o'rganilgan mikroorganizmlarning oziq-ovqat mahsulotlariga kontsentratsiyasi uchun qulay sharoit yaratdi, bu aksariyat hollarda ma'lum bir mintaqalar uchun odatiy hisoblanadi. Natijada, bunday mikroblar tufayli, ayniqsa, sezuvchanligi oshgan aholida (bolalar, qariyalar, immunitet tizimining nuqsonlari bo'lgan odamlar) oziq-ovqat mahsulotlari bilan kasallanish xavfi sezilarli darajada oshdi.

Ushbu hodisalarga qarshi kurashda oziq-ovqat mahsulotlari olishda foydalaniladigan hayvonlar uchun mikroblarga qarshi vositalarni tasdiqlash, ishlab chiqarish, sotish, yetkazib berish va ularni boshqarish bilan shug'ullanadigan barcha jismoniy va yuridik shaxslar o'zaro xabardorlikda, mas'uliyat va ehtiyyotkorlik bilan ishlashlari shart.

Iste'molchilar xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqatni ishlab chiqarish va savdosi jarayonlarida mikrobiologik talablarga rioya etilishi, texnologiya va gigiena rejimlarini tartibga

## PEDAGOGIKA

solvuchi, ishlab chiqaruvchilar hamda nazorat organlari tomonidan nazorat qilish metodologiyasi va tartibini belgilab beruvchi tizimli chora-tadbirlar tashkil etilishi zarur. SHu bilan birga, dunyoda oziq-ovqat orqali yuqadigan infektsiyalarning o'sish tendentsiyalari oziq-ovqat mahsulotidagi mikroblardan keluvchi xatar va uning kasallik chaqiruvchi hamda ta'sir etuvchi omillarining dinamikasining o'sishini hisobga olish imkoniyati kamliji sababli an'anaviy sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi pastligidan dalolat beradi.

«Oziq-ovqat» tufayli yangidan paydo bo'ladigan infektsiyalarning ko'payishini bashorat qilinishi oziq-ovqatning mikrobiologik xavfsizligini ta'minlashning, avvalambor, uni baholash mezonlari va belgilangan gigiena talablariga muvofiqligini, nazoratning me'yoriy va uslubiy bazasiga moslashuvchanligini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Normativ huquqiy baza mahsulot olish zanjiri davomida vujudga keladigan real va potentsial xavflarni hisobga olgan holda o'z vaqtida va doimiy ravishda takomillashtirib borilishi kerak.

Hozirgi kunda mamlakatimizda biologik xavfsizlikni to'la ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uchun qonunchilik bazasi yetarlicha emas. SHuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida foydalaniladigan mikroorganizmlarni xavfsizligi masalalari bo'yicha ham choralar belgilanmagan. SHu munosabat bilan quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan rekombinant DNK usuli bilan olingen mikroorganizmlarning atrof-muhitga chiqishi bilan bog'liq xavflar;
- oziq-ovqat yoki texnologik qo'shimchalar sifatida ishlatiladigan mikroorganizmlar, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan fermentlar orqali ishlab chiqiladigan moddalarning xavfsizligi;
- oziq-ovqat mahsulotidagi mikroorganizmlardan foydalanish bilan bog'liq sog'liqni mustahkamlash yoki salbiy ta'sir oqibatlarini o'ziga xosligini belgilanganligi.

Bir qator mamlakatlarning hukumatlari darajasida milliy qonunchilikka ishlab chiqarishni «sog'lom ovqatlanish»ga yo'naltiruvchi tuzatishlar kiritilmoqda. Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO) - zamonaliviy biotexnologiya bilan begona genlarni kiritish orqali yaratilgan yangi xususiyatlarga ega bo'lgan tirik organizmlardir. Bir tomonidan, u oziq-ovqat ishlab chiqarishni tezda ko'paytirish hamda kimyoviy moddalardan foydalanishni kamaytirishning eng tez yo'lidir. Lekin, boshqa tomonidan, bu ekinlar (soya, jo'xori, raps, g'o'za, pomidor, kartoshka, guruch, qand lavlagi, zig'ir, sholg'om, qovoq, qovun, bug'doy kabi) oziq-ovqat sifati bilan bog'liq bo'lgan xavfga (allergiyaga moyillik, insonlarda zaharli metabolik moddalar paydo bo'lishi) ega. Haqiqat shundaki, ularni yetishtirish paytidagi tuproqqa salbiy ta'sir hamda tabiiy organizmlarning ekologik bo'shilqlardan ko'chishi bu yerdag'i ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ekologik xatarlar yovvoyi va madaniy o'simliklar genofondini xilma-xilligi, suv resurslarini haddan tashqari tartibsiz foydalanish natijasida ifloslanishi, genetik o'zgartirilgan o'simliklar bilan bog'liq toksinlar bilan tabiiy tuproq unumdorligini pasayishi, tuproqdagi umurtqasizlar va mikroflora yo'qolishiga olib keladi.

O'zbekistonda ham GMO o'simliklar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilmoqda. Biroq, bunday organizmlardan foydalangan holda, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish yoki hayvonlar uchun ozuqaga mo'ljallangan ekinlar to'g'risida ochiq ma'lumotlar mavjud emas. SHuning uchun ham aholini va mamlakat milliy xavfsizlik tizimini tarkibiy qismi hisoblangan ekotizimlarni biologik tahdidlardan himoya qilish maqsadida:

- aholi sog'lig'i va tabiatga barcha turdag'i biologik tahdidlar ta'sirini baholash va uni oldini olishni o'z ichiga olgan "Biologik xavfsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini qabul qilish;
- biologik tahdidlardan himoya qilish uchun ekologiya va sog'liqni saqlash ilmiy markazini tashkil etish hamda inson va ekologiya uchun bioxavfsizlik haqidagi axborot milliy bazasini yaratish;
- sanitariya epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya xizmatlari o'rtaida qonun darajasida biologik xavfsizlik bo'yicha tarmoqlararo aloqalarini ta'minlash (O'zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi, "Biologik xavfsizlik to'g'risida"gi qonunlari);
- sanitariya epidemiologiya xizmatlari organlari tomonidan GMO mahsulotlarining xavfsizligini toksikologik va tibbiy-biologik izlanishlar asosida baholashni ta'minlash;

— O'zbekistonda GMO mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish masalarini OAVda keng muhokama qilish va yoritish ishlarini amalga oshirish zarur.

### XULOSA

Bugungi kunda butun dunyoda «ko'rinmas yov» – koronavirusga qarshi kurashilayotgan vaqtida biologik xavfsizlikning ta'minlash sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim va tibbiyot xodimlarining xizmatlarini davlatimiz tomonidan munosib baholanmoqda. Kuni kecha Davlatimiz rahbarining Farmoni bilan o'zlarining fidokorona xizmatlari bilan koronavirus kasalligiga qarshi kurashda jonbozlik ko'rsatgan bir guruh tibbiyot va bir qator soha xodimlari mukofotlandilar.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 noyabrda PQ-4899-son "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori
2. Berg, P., Baltimore, D., Boyer, H. W., Cohen, S. N., Davis, R. W., Hogness, D. S., et al. Potential biohazards of recombinant DNA molecules // Science, 185:303.
3. Colleen B. Jonsson, Kelly Stefano Cole et al. Challenges and Practices in Building and Implementing Biosafety and Biosecurity Programs to Enable Basic and Translational Research with Select Agents // Journal of terrorism & biodefense. Suppl 3. 12634. 10.4172/2157-2526.S3-015.
4. Dana Perkins, Kathleen Danskin A. Elise Rowe, and Alicia A. Livinski. Applied Biosafety // Mar 2019, 34-45. DOI: 10.1177/1535676018778538
5. Homer LC, Alderman TS, Blair HA, Brocard AS, Broussard EE, et al. Guidelines for Biosafety Training Programs for Workers Assigned to BSL-3 Research Laboratories // Biosecur Bioterror. 2013; 11:10–19. [PubMed: 23477631]
6. Айкимбаев АМ. Основы биологической безопасности: монография. Алматы, 2010
7. Онищенко Г.Г, Смоленский В.Ю и др. Актуальные проблемы биологической безопасности в современных условиях. Часть 3. Научное обеспечение национального нормирования широкого формата биологической безопасности // Вестник РАМН 2014;11. с-118–127.
8. <https://lex.uz/docs/5123682>